International Scientific Journal of Contemporary Research in Social Sciences and Humanities
2026 / No. 1 (1)
ELECTRONIC JOURNAL | OPEN ACCESS
Received: 10 October 2026, Accepted: 20 October 2026, Published: 30 October 2026

O‘ZBEKISTONDA BUDJETLARARO MUNOSABATLARNI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI MAHALLIY BUDJETLARNING MOLIYAVIY MUSTAQILLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI

Chirmashev Abdujalil
Andijon davlat texnika instituti
“Moliya va moliyaviy texnologiyalar” ta’lim yo‘nalishi 2-kurs talabasi
e-mail: abdujalilchirmashev@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekistonda budjetlararo munosabatlarning mavjud holati va mahalliy budjetlarning moliyaviy mustaqilligi 2025-yil ma’lumotlari asosida tahlil qilingan. Mahalliy budjetlar xarajatlarining 65,3 foizi o‘z daromadlari hisobidan qoplangani, fiskal avtonomiya darajasi hududlar kesimida 43,8 foizdan 86,7 foizgacha tafovutlanishi hamda transfertlar taqsimotida individual yondashuv unsurlari saqlanib qolayotgani aniqlangan. 2025-yilgi islohotlar, jumladan 78 ta tumanning o‘z-o‘zini moliyalashtirishga o‘tkazilishi va QQS tushumlarining bir qismini mahalliy budjetlarga o‘tkazish qarori baholangan. Maqolada mahalliy moliyaviy mustaqillikning integral indeksi (MMMI) va unga asoslangan differensial desentralizatsiya modeli taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: budjetlararo munosabatlar, fiskal desentralizatsiya, mahalliy budjet, moliyaviy mustaqillik, transfertlar, fiskal avtonomiya, formulali taqsimlash.

Abstract. This article analyzes the current state of intergovernmental fiscal relations and the financial autonomy of local budgets in Uzbekistan based on 2025 data. The analysis reveals that 65.3% of local budget expenditures are covered by own-source revenues, that the level of fiscal autonomy varies considerably across regions, ranging from 43.8% to 86.7%, and that elements of a discretionary approach remain in the allocation of intergovernmental transfers. The article assesses the 2025 reforms, including the transition of 78 districts to self-financing and the decision to allocate a portion of value-added tax (VAT) revenues to local budgets. Furthermore, the article

Received: 10 October 2026, Accepted: 20 October 2026, Published: 30 October 2026

proposes an Integrated Index of Local Financial Autonomy (ILFAI) and a differentiated decentralization model based on this index.

Keywords: intergovernmental fiscal relations, fiscal decentralization, local budget, financial autonomy, transfers, fiscal autonomy, formula-based allocation.

Аннотация. В статье на основе данных за 2025 год анализируется современное состояние межбюджетных отношений и финансовой самостоятельности местных бюджетов в Узбекистане. Установлено, что 65,3% расходов местных бюджетов покрываются за счёт собственных доходов, уровень фискальной автономии существенно различается в региональном разрезе — от 43,8% до 86,7%, а в распределении межбюджетных трансфертов сохраняются элементы индивидуального подхода. В статье дана оценка реформам 2025 года, включая перевод 78 районов на самофинансирование и решение о направлении части поступлений налога на добавленную стоимость (НДС) в местные бюджеты. Кроме того, предложен интегральный индекс местной финансовой самостоятельности (ИМФС) и основанная на нём модель дифференцированной децентрализации.

Ключевые слова: межбюджетные отношения, фискальная децентрализация, местный бюджет, финансовая самостоятельность, трансферты, фискальная автономия, формульное распределение.

Kirish.

Bugungi kunda mahalliy budjetlarning moliyaviy mustaqilligi masalasi O‘zbekiston uchun nafaqat moliyaviy-texnik, balki ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega masalaga aylangan. Hududlar aholining turmush sharoitini yaxshilash, infratuzilmani rivojlantirish va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish uchun yetarli moliyaviy resurslarga ega bo‘lmasa, mahalliy darajadagi tashabbuslarning samaradorligi sezilarli darajada pasayadi. 2025-yil ma’lumotlari ushbu holatni yaqqol ifodalaydi: mahalliy budjetlarning jami daromadlari 71,3 trln so‘mni, xarajatlari esa 109,2 trln so‘mni tashkil etgan [1; 2]. Mazkur ko‘rsatkichlar mahalliy budjetlar xarajatlarining qariyb 35 foizi o‘z daromadlari

Received: 10 October 2026, Accepted: 20 October 2026, Published: 30 October 2026

hisobidan qoplanmaganidan dalolat beradi. Ushbu holat mahalliy budjetlarning moliyaviy mustaqilligi hali yetarli darajada emasligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, so‘nggi yillarda ushbu yo‘nalishda muhim institutsional o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-iyundagi PF-98-son Farmoni bilan tasdiqlangan mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatini 2030-yilga qadar rivojlantirish konsepsiyasida “ma’muriy, budjet va fiskal nomarkazlashtirish asosida hududlarning ma’muriy va moliyaviy mustaqilligini yanada oshirish” ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan [3]. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi PQ-387-son qarori bilan esa 2026-yil 1-yanvardan QQS tushumlarining bir qismini mahalliy budjetlarga o‘tkazish tartibi belgilandi [4]. Unga ko‘ra, Toshkent shahri budjetiga shaharda yig‘ilgan QQSning 5 foizi, boshqa hududlarga 20 foizi yo‘naltiriladi, bunda tushumlarning kamida 50 foizi tuman va shahar budjetlariga o‘tkaziladi. Ushbu qaror hisobidan mahalliy budjetlar ixtiyorida 4,3 trln so‘m qoldirilishi ko‘zda tutilgan [5]. Bundan tashqari, 2025-yilgi budjet islohoti doirasida 78 ta tuman o‘z-o‘zini moliyalashtirishga o‘tkazildi va respublika budjetidan transfert oluvchilar soni 188 tadan 110 taga qisqartirildi [6].

Amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar ijobiy ahamiyatga ega bo‘lsa-da, ular tizimli muammolarni to‘liq hal etmaydi, zero moliyaviy mustaqillik faqat daromad manbalarini ko‘paytirish bilan o‘lchanmaydi. U hududning o‘z daromad bazasini kengaytirish salohiyati, transfertlarga bog‘liqlik darajasi, budjet mablag‘larini boshqarishdagi moslashuvchanlik va mahalliy hokimiyatlarning fiskal mas’uliyati kabi bir nechta o‘lchovni qamrab oladi. Mavjud ilmiy adabiyotlarda mazkur o‘lchovlar alohida tahlil qilingan bo‘lsa-da, ularni yagona integral ko‘rsatkichga birlashtirish va shu asosda har bir hudud uchun differensial desentralizatsiya strategiyasini ishlab chiqish masalasi ochiq qolmoqda. Shundan kelib chiqib, mazkur maqolaning maqsadi O‘zbekistonda budjetlararo munosabatlarni takomillashtirish orqali mahalliy budjetlarning moliyaviy mustaqilligini oshirish yo‘llarini 2025-yil ma’lumotlari asosida asoslash va integral baholash modelini taklif etishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: (1) mahalliy budjetlarning moliyaviy mustaqillik darajasini

Received: 10 October 2026, Accepted: 20 October 2026, Published: 30 October 2026

hududlar kesimida baholash; (2) budjetlararo transfertlar tizimining mavjud muammolarini aniqlash; (3) 2025–2026-yillardagi islohotlarning dastlabki natijalarini tahlil qilish; (4) moliyaviy mustaqillikni oshirishning bosqichma-bosqich modelini ishlab chiqish.

Tadqiqot metodologiyasi.

Fiskal desentralizatsiya nazariyasi iqtisodiy fanda chuqur ilmiy asoslarga ega. Ch. Tibu modeli mahalliy hokimiyatlar o‘rtasidagi raqobat orqali jamoat xizmatlarini ko‘rsatish samaradorligi oshishini tushuntiradi [7]. U. Outsning “desentralizatsiya teoremasi” esa jamoat xizmatlarini mahalliy ehtiyojlarga moslashtirib ko‘rsatish markazlashgan tarzda ko‘rsatishga nisbatan samaraliroq ekanini asoslaydi [8]. Shu bilan birga, mazkur nazariyalar rivojlangan bozor iqtisodiyoti sharoitlari uchun ishlab chiqilgan bo‘lib, o‘tish iqtisodiyotidagi mamlakatlarda ularning amal qilish shartlari farq qiladi.

OECD tadqiqotlari fiskal desentralizatsiya va iqtisodiy o‘sish o‘rtasida umuman ijobiy bog‘liqlik mavjudligini, biroq bu bog‘liqlik daromadlar desentralizatsiyasida kuchliroq, xarajatlar desentralizatsiyasida esa zaifroq namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi [9]. OECD mamlakatlarida daromadlar desentralizatsiyasining 10 foiz punktga oshishi davlat investitsiyalarining umumiy xarajatlardagi ulushini o‘rtacha 3 foizdan 4 foizdan ko‘proqqa ko‘targani kuzatilgan. Umuman olganda, fiskal desentralizatsiya davlat mablag‘larining kapital xarajatlarga yo‘naltiriladigan ulushini oshiradi [10]. Ushbu xulosa O‘zbekiston uchun muhim amaliy ahamiyat kasb etadi, chunki mahalliy budjetlarning xarajat vakolatlarini kengaytirish bilan bir qatorda ularning o‘z daromad manbalarini mustahkamlash hal qiluvchi omil hisoblanadi.

O‘zbekistonda mahalliy budjetlar va budjetlararo munosabatlar masalasi bir necha yo‘nalishda o‘rganilgan. Xususan, mahalliy budjetlar daromadlarini mustahkamlashda mahalliy soliq bazasini kengaytirish, transfertlar va tenglashtirish vositalari, soliq undirishni raqamlashtirish hamda mahalliy obligatsiyalar kabi mexanizmlarning roli tahlil qilingan [11]. Mahalliy budjetlarning daromad salohiyati va transfertlar oqimlarining tarkibiy tahliliga bag‘ishlangan ishlarda 2025-yil budjet prognozi amaldagi

Received: 10 October 2026, Accepted: 20 October 2026, Published: 30 October 2026

ijro bilan solishtirilib, mahalliy budjetlarning transfertlar bilan ta’minlanganlik darajasi aniqlangan [12]. Mahalliy budjetlarning moliyaviy mustaqilligini ta’minlashga bag‘ishlangan tadqiqotlarda esa daromad bazasi barqarorligiga ta’sir etuvchi omillar tizimlashtirilgan [13].

Budjetlararo transfertlarni formulali taqsimlash bo‘yicha G.Malikova tadqiqotida mavjud tizim “qarorlarning individual xususiyati, transfertlar taqsimotining shaffof emasligi va hududlar uchun moliyalashtirishning cheklangan prognozlanuvchanligi” kabi belgilarni saqlab qolayotgani qayd etilgan. Muallif tomonidan 2025-yilda vazirlik, idora va hokimliklarning 79 nafar xodimi o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rov ushbu xulosalarni empirik jihatdan tasdiqlagan [6]. Respondentlarning 51,3 foizi mahalliy budjetlarning respublika darajasiga yuqori bog‘liqligini, 35,5 foizi hududlarda o‘z-o‘zini rivojlantirish uchun rag‘bat yo‘qligini, 28,9 foizi transfertlar taqsimotining shaffof emasligini va 27,6 foizi “tenglashtirish” muammosini - iqtisodiy jihatdan rivojlangan hududlar mablag‘larining nisbatan zaif hududlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishini qayd etgan. Respondentlarning atigi 31,6 foizi tuman va shahar budjetlarini mustaqil deb baholagan, 53,2 foizi esa o‘z daromadlari xarajatlarning atigi 20–40 foizini qoplashini ko‘rsatgan. Shuningdek, 2019-yilda budjetlararo transfertlarning variatsiya koeffitsiyenti 104 foizni tashkil etgan [6]. Keltirilgan ma’lumotlar mazkur muammolarning tizimli xususiyatga ega ekanini tasdiqlaydi.

Tadqiqotda statistik tahlil, qiyosiy tahlil, institutsional tahlil va ekspert baholash usullaridan foydalanildi. Ma’lumot manbalari sifatida O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2025-yil uchun konsolidatsiyalashgan budjet ijrosi ma’lumotlari, normativ-huquqiy hujjatlar, xalqaro tashkilotlar (OECD) hisobotlari hamda ilmiy maqolalar xizmat qildi. Tahlil uch o‘lchov bo‘yicha olib borildi: (1) fiskal avtonomiya darajasi (o‘z daromadlarining xarajatlarga nisbati); (2) transfertlarga bog‘liqlik darajasi; (3) hududlararo fiskal tafovutlar (Jini koeffitsiyenti orqali).

Natija va tahlillar.

2025-yil yakunlari bo‘yicha barcha hududiy budjetlar jami 71 267 mlrd so‘m daromad va 109 204 mlrd so‘m xarajat bilan ijro etilgan [1; 2]. Natijada mahalliy

International Scientific Journal of Contemporary Research in Social Sciences and Humanities
2026 / No. 1 (1)
ELECTRONIC JOURNAL | OPEN ACCESS
Received: 10 October 2026, Accepted: 20 October 2026, Published: 30 October 2026

budjetlar xarajatlarining daromadlardan oshgan qismi 37 937 mlrd so‘mni tashkil etgan. Ushbu farqning 18 462 mlrd so‘mi (48,7 foizi) respublika budjetidan yo‘naltirilgan transfertlar hisobidan qoplangan [1]. Bu ko‘rsatkichlar asosida mahalliy budjetlarning umumiy fiskal avtonomiyasi 65,3 foizni tashkil etadi. Bu har 100 so‘mlik xarajatning 65,3 so‘mi o‘z daromadlari hisobidan moliyalashtirilganini anglatadi. Transfertlar esa jami xarajatlarning 16,9 foizini moliyalashtirgan. Hududlar kesimidagi oddiy o‘rtacha fiskal avtonomiya bundan pastroq – 62,7 foiz bo‘lib, bu farq yuqori avtonomiyaga ega Toshkent shahri va Toshkent viloyatining jami ko‘rsatkichdagi salmog‘i katta ekani bilan izohlanadi. Shu bilan birga, o‘rtacha ko‘rsatkichlar hududlar o‘rtasidagi sezilarli tafovutlarni to‘liq aks ettirmaydi. Hududlarning fiskal avtonomiya darajasi bo‘yicha qiyosiy holati 1-jadvalda keltirilgan.

Fiskal avtonomiya darajasi bo‘yicha hududlarning qiyosiy holati (2025-yil)

1-jadval

Hudud	Fiskal avtonomiya, %	Transfert ulushi, %	Izoh
Toshkent shahri	86,7	1,7	Eng yuqori salohiyat
Toshkent viloyati	84,5	3,0	Yuqori salohiyat
Navoiy viloyati	78,1	2,0	Yuqori salohiyat
Buxoro viloyati	68,8	10,4	O‘rtachadan yuqori
Qashqadaryo viloyati	66,2	11,9	O‘rtacha
Samarqand viloyati	65,5	21,1	O‘rtacha
Xorazm viloyati	59,7	23,3	O‘rtachadan past
Farg‘ona viloyati	59,2	19,9	O‘rtachadan past
Andijon viloyati	57,6	25,9	Past
Namangan viloyati	55,1	29,6	Past
Surxondaryo viloyati	52,6	30,7	Past
Jizzax viloyati	50,7	21,5	Past

International Scientific Journal of Contemporary Research in Social Sciences and Humanities
2026 / No. 1 (1)
ELECTRONIC JOURNAL | OPEN ACCESS
Received: 10 October 2026, Accepted: 20 October 2026, Published: 30 October 2026

Hudud	Fiskal avtonomiya, %	Transfert ulushi, %	Izoh
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	49,6	33,1	Eng past
Sirdaryo viloyati	43,8	18,5	Eng past

1-jadval ma’lumotlariga ko‘ra, Toshkent shahri, Toshkent va Navoiy viloyatlarining fiskal avtonomiyasi 78–87 foizni tashkil etib, ularning transfertlarga bog‘liqligi minimal darajada. Sirdaryo (43,8%), Qoraqalpog‘iston Respublikasi (49,6%), Jizzax (50,7%) va Surxondaryo (52,6%) hududlarida esa xarajatlarning yarmi atrofidagi qismigina o‘z daromadlari hisobidan qoplanadi. Eng yuqori va eng past ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi farq 42,9 foiz punktni tashkil etib, Toshkent shahrining fiskal avtonomiyasi Sirdaryo viloyatinikidan qariyb 2 baravar yuqori. Ushbu tafovut Jini koeffitsiyenti orqali ham tasdiqlanadi: Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma’lumotlari asosida hisoblanganda, 2025-yilda daromadlar bo‘yicha Jini koeffitsiyenti 0,2658 ni, transfertlar bo‘yicha esa 0,3352 ni tashkil etgan [1]. Transfertlar bo‘yicha tengsizlikning daromadlar bo‘yicha tengsizlikdan yuqoriligi transfertlar taqsimotining hududlar o‘rtasida nisbatan notekis ekanini ko‘rsatadi.

Tahlil natijalari yana bir muhim jihatni ko‘rsatadi. Transfertlar ulushi xarajatlarning 20 foizidan oshgan 7 ta hudud – Samarqand, Xorazm, Andijon, Namangan, Surxondaryo, Jizzax viloyatlari va Qoraqalpog‘iston Respublikasi subvensiyaga yuqori darajada bog‘liq hududlar sifatida ajralib turadi. Mazkur hududlarning respublika budjetiga bog‘liqligi moliyaviy resurslar bilan bir qatorda fiskal qarorlar qabul qilish jarayonida ham namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, fiskal avtonomiyasi eng past bo‘lgan Sirdaryo viloyatida transfertlar ulushi (18,5%) bir qator nisbatan barqaror hududlarnikidan past. Ushbu holat transfertlar hajmining hududlarning moliyaviy ehtiyojiga har doim ham mutanosib emasligini hamda taqsimotda individual yondashuv saqlanib qolayotganini ko‘rsatadi.

Received: 10 October 2026, Accepted: 20 October 2026, Published: 30 October 2026

2025–2026-yillarda amalga oshirilgan islohotlarni uch guruhga ajratish mumkin: ma’muriy vakolatlarni kengaytirish, daromad manbalarini nomarkazlashtirish va transfertlar tizimini optimallashtirish.

Ma’muriy vakolatlarni kengaytirish yo‘nalishida Budjet kodeksiga kiritilayotgan o‘zgartirish muhim ahamiyatga ega. Hozirgi tartibda mahalliy budjetlarning birinchi va ikkinchi guruh xarajatlari (ish haqi, ijtimoiy soliq, oziq-ovqat va dori-darmon xaridlari) bo‘yicha o‘zgartirishlar Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi. 2026-yil iyul oyida birinchi o‘qishda ko‘rib chiqilgan qonun loyihasiga ko‘ra, bu cheklov bekor qilinib, tegishli o‘zgartirishlar bevosita Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri moliya organlari tomonidan amalga oshiriladi [14]. Mazkur o‘zgartirish markaziy organ bilan kelishuv zaruratini bartaraf etish orqali mahalliy budjetlarni boshqarishning tezkorligini oshiradi.

Daromad manbalarini nomarkazlashtirish yo‘nalishida 2026-yildan QQS tushumlarining bir qismini mahalliy budjetlarga o‘tkazish eng sezilarli o‘zgarish hisoblanadi [4; 5]. Ushbu mexanizm mahalliy hokimiyat organlarining QQS tushumlaridan bevosita manfaatdorligini ta’minlab, hududdagi tadbirkorlik subyektlarining QQS to‘lovchi sifatida faoliyat yuritishini rag‘batlantirishga xizmat qiladi. Mahallalar darajasida ham moliyaviy mustaqillikni kuchaytirish choralari ko‘rildi: mahallada qoladigan yer va mol-mulk solig‘i ulushi 10 foizdan 15 foizga oshirildi, noturar joy obyektlari bo‘yicha to‘lanadigan yer va mol-mulk soliqlarining 5 foizi hamda sanitariya qoidalarini buzish va noqonuniy qurilish uchun jarimalarning 10 foizi mahallalar budjetiga yo‘naltiriladigan bo‘ldi. Noturar joy obyektlaridan tushadigan mablag‘larning o‘zi yiliga qariyb 400 mlrd so‘mni tashkil etishi kutilmoqda [15]. Mazkur choralar moliyaviy mustaqillikni boshqaruvning quyi bo‘g‘inidan boshlab shakllantirishga xizmat qiladi.

Transfertlar tizimini optimallashtirish yo‘nalishida 78 ta tumanning o‘z-o‘zini moliyalashtirishga o‘tkazilishi va transfert oluvchilar sonining 188 tadan 110 taga (41,5 foizga) qisqartirilishi eng muhim o‘zgarish hisoblanadi [6]. Mazkur chora o‘z daromad bazasiga ega hududlarning transfertlarga bog‘liqligini kamaytirish hamda cheklangan

Received: 10 October 2026, Accepted: 20 October 2026, Published: 30 October 2026

transfert resurslarini moliyaviy yordamga ehtiyoji yuqori bo‘lgan hududlarga yo‘naltirishga qaratilgan. Shu bilan birga, o‘z-o‘zini moliyalashtirishga o‘tkazilgan tumanlarda barqaror daromad bazasi shakllanmagan taqdirda, ularning moliyaviy barqarorligi pasayishi mumkin. G. Malikova mazkur xavfni qayd etib, islohotlarning navbatdagi bosqichi sifatida ma’muriy mexanizmni formulali asoslash bilan to‘ldirish zarurligini ta’kidlaydi [6]. Amalga oshirilgan islohotlarga qaramay, transfertlar tizimida bir qator tizimli muammolar saqlanib qolmoqda. Avvalo, transfertlar miqdori ko‘p hollarda formula asosida emas, balki individual qarorlar asosida belgilanadi. Mazkur holat hududlar uchun moliyalashtirishning prognozlanuvchanligini pasaytiradi va mahalliy hokimiyat organlarining uzoq muddatli rejalashtirish imkoniyatlarini cheklaydi. Bundan tashqari, mavjud tizim hududlarni o‘z soliq bazasini kengaytirishga yetarli darajada rag‘batlantirmaydi, chunki qo‘shimcha jalb qilingan daromadlar transfertlar hajmining qisqarishiga olib kelishi mumkin. Mazkur holat transfertlarga bog‘liqlikning iqtisodiy asosini tashkil etadi; so‘rov ishtirokchilarining 35,5 foizi ham rag‘batlarning mavjud emasligini qayd etgan [6]. Shuningdek, iqtisodiy jihatdan rivojlangan hududlar mablag‘larining nisbatan zaif hududlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishi rivojlangan hududlarning o‘sish sur’atlariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ushbu muammolarni hal etish uchun transfertlarning ma’lum qismini hududning soliq yig‘ish samaradorligiga bog‘lash zarur.

Yuqoridagi tahlil asosida mahalliy moliyaviy mustaqillikning integral indeksi (MMMI) taklif etiladi:

$$MMMI = w_1 \cdot FA + w_2 \cdot (1 - TD) + w_3 \cdot DB + w_4 \cdot BM$$

bu yerda FA – fiskal avtonomiya (o‘z daromadlarining xarajatlarga nisbati); TD – transfertlarga bog‘liqlik (transfertlarning umumiy daromaddagi ulushi, teskari ko‘rsatkich sifatida olinadi); DB – daromad bazasining barqarorligi (soliq tushumlari tarkibi va o‘sish dinamikasi); BM – budjet boshqaruvidagi moslashuvchanlik (mahalliy hokimiyatning xarajatlarni o‘zgartirish vakolati darajasi); w – ekspert bahosi asosida aniqlanadigan va hududning iqtisodiy salohiyatiga qarab differensiallanadigan vazn

International Scientific Journal of Contemporary Research in Social Sciences and Humanities
2026 / No. 1 (1)
ELECTRONIC JOURNAL | OPEN ACCESS
Received: 10 October 2026, Accepted: 20 October 2026, Published: 30 October 2026

koeffitsiyentlari (Σw = 1). MMMI qiymati 0 dan 1 gacha o‘zgaradi va 2-jadvaldagi shkala bo‘yicha talqin qilinadi.

MMMI qiymatlarini talqin qilish shkalasi

2-jadval

MMMI qiymati	Talqin	Tavsiya etilgan strategiya
0,75–1,00	Yuqori mustaqillik	Transfertlarni bosqichma-bosqich qisqartirish, to‘liq o‘z-o‘zini moliyalashtirishga o‘tish
0,50–0,75	O‘rtacha mustaqillik	Daromad bazasini kengaytirish, rag‘batlantiruvchi transfert mexanizmlarini qo‘llash
0,25–0,50	Past mustaqillik	Barqaror transfertlar, investitsiya salohiyatini oshirish dasturlari
0–0,25	Kritik darajada past	Subvensiya rejimi, institutsional salohiyatni kuchaytirish

DB va BM komponentlari bo‘yicha hududlar kesimidagi ma’lumotlar to‘liq e’lon qilinmaganini hisobga olib, hududlar dastlab fiskal avtonomiya darajasi asosida taxminiy guruhlarga ajratildi (3-jadval).

Hududlarni moliyaviy mustaqillik darajasi bo‘yicha guruhlash va differensial siyosat

3-jadval

Guruh	Hududlar	Asosiy muammo	Siyosat ustuvorligi
A (yuqori)	Toshkent shahri, Toshkent va Navoiy viloyatlari	Transfertga deyarli bog‘liq emas	Fiskal mas’uliyatni oshirish, qarz olish vakolatini kengaytirish

International Scientific Journal of Contemporary Research in Social Sciences and Humanities
2026 / No. 1 (1)
ELECTRONIC JOURNAL | OPEN ACCESS
Received: 10 October 2026, Accepted: 20 October 2026, Published: 30 October 2026

Guruh	Hududlar	Asosiy muammo	Siyosat ustuvorligi
B (o‘rtacha)	Buxoro, Qashqadaryo va Samarqand viloyatlari	Daromad bazasi yetarli, ammo transfert ulushi sezilarli	Soliq bazasini kengaytirish, rag‘batlantiruvchi transfertlar
C (past)	Farg‘ona, Xorazm, Andijon va Namangan viloyatlari	Transfertga sezilarli bog‘liqlik	Investitsiya muhitini yaxshilash, mahalliy daromad manbalarini ko‘paytirish
D (kritik)	Sirdaryo, Jizzax, Surxondaryo viloyatlari va Qoraqalpog‘iston Respublikasi	Xarajatlarning qariyb yarmi yoki undan ko‘pi o‘z daromadlari bilan qoplanmaydi	Subvensiya bilan birga institutsional salohiyatni kuchaytirish

Taklif etilayotgan modelning amaliy ahamiyati barcha hududlarga yagona yondashuvni qo‘llash o‘rniga differensial siyosat yuritish imkoniyatida namoyon bo‘ladi. Xususan, fiskal avtonomiyasi 86,7 foizni tashkil etuvchi Toshkent shahriga qo‘shimcha transfert ajratish iqtisodiy jihatdan asoslanmagan. Shu bilan birga, Sirdaryo viloyatiga ajratiladigan transfertlarning keskin qisqartirilishi uning moliyaviy holatini yanada yomonlashtirishi mumkin. Shu sababli desentralizatsiya bosqichma-bosqich va differensial tarzda amalga oshirilishi lozim.

Muhokama.

Olingan natijalarni xalqaro tajriba bilan qiyoslaganda, fiskal desentralizatsiya daromad manbalarini nomarkazlashtirish orqali yuqori samara berishi ma’lum bo‘ladi [9]. Estoniya va Latviya tajribasida mahalliy budjetlarning moliyaviy mustaqilligini oshirish natijadorlikka asoslangan budjetlashtirish mexanizmlari bilan uyg‘unlashtirilgan bo‘lib, budjet mablag‘larining samaradorligi aniq natija indikatorlari asosida baholanadi. Ushbu tajriba O‘zbekiston uchun muhim ahamiyatga ega: QQS

Received: 10 October 2026, Accepted: 20 October 2026, Published: 30 October 2026

ulushi va mahalliy soliqlar hisobiga daromad manbalarini kengaytirish maqsadga muvofiq yo‘nalish hisoblansa-da, bu jarayon natijadorlik indikatorlari bilan uyg‘un holda amalga oshirilishi lozim. Aks holda qo‘shimcha moliyaviy resurslardan samarasiz foydalanish xavfi yuzaga keladi.

Germaniya, Janubiy Koreya va Polsha modellari ham o‘ziga xos xususiyatlarga ega [9]. Germaniya kooperativ federalizm modelini qo‘llaydi, Janubiy Koreya kuchli markaziy nazoratni mahalliy avtonomiya bilan uyg‘unlashtiradi, Polsha esa Yevropa Ittifoqi tarkibiy fondlari bilan integratsiyalashgan desentralizatsiya modelini rivojlantirgan. O‘zbekiston sharoitida mazkur modellarni to‘liq ko‘chirish emas, balki ularning samarali elementlarini milliy xususiyatlarga moslashtirib qo‘llash maqsadga muvofiq. Shu bilan birga, taklif etilgan MMMI modelining ayrim cheklovlari mavjud. Daromad bazasi barqarorligi va budjet boshqaruvidagi moslashuvchanlik komponentlari bo‘yicha hududlar kesimidagi ma’lumotlar to‘liq ochiq emas. Vazn koeffitsiyentlari esa ekspert bahosiga asoslanadi. Shu sababli 3-jadvaldagi guruhlash taxminiy xususiyatga ega bo‘lib, uni to‘liq ma’lumotlar asosida aniqlashtirish kelgusi tadqiqotlar vazifasi hisoblanadi.

Xulosa va takliflar.

Xulosa qilib aytganda, o‘tkazilgan tadqiqot natijalari O‘zbekistonda mahalliy budjetlarning moliyaviy mustaqillik darajasi hali yetarli emasligini ko‘rsatadi: 2025-yilda mahalliy budjetlar xarajatlarining 65,3 foizi o‘z daromadlari hisobidan qoplangan, hududlar kesimida esa bu ko‘rsatkich Sirdaryo viloyatidagi 43,8 foizdan Toshkent shahridagi 86,7 foizgacha tafovutlanadi. Transfertlar bo‘yicha Jini koeffitsiyentining (0,3352) daromadlar bo‘yicha koeffitsiyentdan (0,2658) yuqoriligi transfertlar taqsimotining ham notekisligini ko‘rsatadi. 2025–2026-yillardagi islohotlar – 78 ta tumanning o‘z-o‘zini moliyalashtirishga o‘tkazilishi, transfert oluvchilar sonining 188 tadan 110 taga qisqartirilishi, QQS tushumlarining bir qismini mahalliy budjetlarga yo‘naltirish va mahallalar budjetini kuchaytirish – moliyaviy mustaqillikning institutsional asoslarini mustahkamlamoqda. Shu bilan birga, transfertlar taqsimotida individual qarorlarning ustunligi, hududlarda daromad bazasini kengaytirish uchun

Received: 10 October 2026, Accepted: 20 October 2026, Published: 30 October 2026

rag‘batlarning yetishmasligi va “tenglashtirish”ning salbiy ta’siri kabi tizimli muammolar saqlanib qolmoqda. Taklif etilgan MMMI modeli hududlarni moliyaviy mustaqillik darajasi bo‘yicha to‘rt guruhga ajratish va har bir guruh uchun differensial siyosat yuritish imkonini beradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

- transfertlar taqsimotini bosqichma-bosqich formulali asosga o‘tkazish taklif etiladi. Dastlab o‘z-o‘zini moliyalashtirishga o‘tkazilgan 78 ta tumanda sinovdan o‘tkazib, keyinchalik barcha hududlarga joriy etish lozim. Formula hududning soliq salohiyati, aholi soni va xarajat ehtiyojlarini hisobga olishi zarur. Mazkur yondashuv transfertlar taqsimotining shaffofligi va prognozlanuvchanligini ta’minlaydi;

- rag‘batlantiruvchi transfert mexanizmini joriy etish maqsadga muvofiq. Bunda transfertlarning bir qismi hududning soliq yig‘ish samaradorligiga bog‘lanadi. Natijada hududlarning o‘z daromad bazasini kengaytirishdan manfaatdorligi ortadi va transfertlarga bog‘liqlik darajasi pasayadi;

- MMMI asosida differensial siyosat yuritish zarur. A guruhidagi hududlarga ko‘proq fiskal mas’uliyat va qarz olish vakolatini berish, D guruhidagi hududlarga esa subvensiya bilan birga institutsional salohiyatni kuchaytirishda yordam ko‘rsatish lozim. Mazkur yondashuv barcha hududlarga yagona talablarni qo‘llash natijasida yuzaga keladigan salbiy oqibatlarning oldini olishga xizmat qiladi;

- mahalliy daromad manbalarini yanada kengaytirish taklif etiladi. QQS ulushini bosqichma-bosqich oshirish, mol-mulk va yer soliqlarining mahalliy budjetlarda qoladigan ulushini ko‘paytirish hamda mahallalar darajasidagi moliyaviy mustaqillikni mustahkamlash lozim;

- natijadorlikka asoslangan budjetlashtirishni joriy etish zarur. Estoniya va Latviya tajribasi asosida budjet mablag‘lari samaradorligini aniq natija indikatorlari orqali baholash tizimini yaratish lozim. Bu qo‘shimcha moliyaviy resurslardan maqsadli va samarali foydalanishni ta’minlaydi.

Received: 10 October 2026, Accepted: 20 October 2026, Published: 30 October 2026

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. 2025-yil uchun davlat budjeti ijrosi to‘g‘risida ma’lumot. – 25.03.2026. https://t.me/minecofinuz/14594
2. Kun.uz. Davlat budjetining 2025-yildagi ijrosi. Defitsit – 39 trln so‘mgacha qisqardi. – 25.03.2026. https://kun.uz/news/2026/03/25/davlat-budjetining-2025-yildagi-ijrosi-defitsit-39-trln-somgacha-qisqardi
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 23.06.2025 yildagi PF-98-son. “O‘zbekiston Respublikasida mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatini 2030-yilga qadar rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”. https://lex.uz/docs/7594283
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 26.12.2025 yildagi PQ-387-son. “Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”. https://lex.uz/docs/7952193
5. Gazeta.uz. 2026-yildan QQS tushumlarining bir qismi mahalliy budjetlarga o‘tkaziladi. – 03.12.2025. https://www.gazeta.uz/oz/2025/12/03/municipial-budget/
6. Malikova G. Формульное распределение межбюджетных трансфертов // Институт законодательства и правовой политики при Президенте Республики Узбекистан. – 07.08.2026. https://illp.uz/формульное-распределение-межбюджетн/
7. Tiebout C.M. A Pure Theory of Local Expenditures // Journal of Political Economy. – 1956. – Vol. 64, No. 5. – P. 416–424.
8. Oates W.E. Fiscal Federalism. – New York: Harcourt Brace Jovanovich, 1972. – 256 p.
9. OECD. Fiscal Federalism 2022: Making Decentralisation Work. – Paris: OECD Publishing, 2021. https://doi.org/10.1787/201c75b6-en

Received: 10 October 2026, Accepted: 20 October 2026, Published: 30 October 2026

10. Fredriksen K. Decentralisation and Economic Growth – Part 3: Decentralisation, Infrastructure Investment and Educational Performance // OECD Working Papers on Fiscal Federalism. – Paris: OECD Publishing, 2013. – No. 16.
11. Imanova U. Mahalliy budjetlar daromadlarini mustahkamlashda moliyaviy resurslarni boshqarish mexanizmlari // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. – 2026. – Vol. 4, No. 1. – P. 20–24. https://doi.org/10.5281/zenodo.20324755
12. Hakimov F.X. Mahalliy budjetlar daromad salohiyati va budjetlararo transfertlar oqimlarining tarkibiy tahlili // Muhandislik va iqtisodiyot. – 2026. – No. 4. – P. 306–308. https://doi.org/10.5281/zenodo.23355228
13. Raxmonova S.S. Mahalliy budjetlarning moliyaviy mustaqilligini ta'minlash va uning daromad bazasi barqarorligiga ta'sir etuvchi omillar tahlili // "XXI asrda innovatsion texnologiyalar, fan va ta'lim taraqqiyotidagi dolzarb muammolar" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – 2026. – Vol. 4, No. 3. – P. 34–41. https://doi.org/10.5281/zenodo.19000303
14. UzA. Mahalliy byudjetlar boshqaruvida o'zgarishlar kutilmoqda. – 28.07.2026. https://uza.uz/posts/mahalliy-byudjetlar-boshqaruvida-ozgarishlar-kutilmoqda_887783
15. Gazeta.uz. O'zbekistonda soliqlar va jarimalarning bir qismi mahallalarning o'zida qoladi. – 16.07.2026. https://www.gazeta.uz/oz/2026/07/16/mahalla-budget/